

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIYTA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

**Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi
boshlig'i T.A.Yuldashevning 2024-2025- o'quv yili sentyabr
oyi davomida bajargan ishlari yuzasidan**

H I S O B O T I



Samarqand-2024

Sentyabr oyi davomida Manaviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshlig'i, profilaktika inspektori, 7 nafar ta'lim-tarbiya maslahatchilari va 14 nafar guruh rahbarlari (4-kurslar uchun) tomonidan talabalarining ijara xonadonlarida yashash sharoitlari o'rganilib chiqildi. Ijara xonadonlaridagi yong'in xavfsizligiga rioya etilishi va kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holatlari ko'rib chiqildi, jumladan xonadonlarda yashovchi talabalar bilan elektr, gaz, texnika, yong'in xavfsizligi va sanitariya qoidalariga rioya qilish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Shuningdek, yashash, dars qilish va ovqatlanish uchun zarur bo'lgan maishiy jihozlarni ishlatish bo'yicha ham ko'rsatmalar berib o'tildi. O'rganish yakunida ishchi guruh tomonidan aniqlangan kamchilik va muammolar ijara xonadon egalari bilan hamkorlikda bartaraf etildi.

Yashash sharoitlarini chuqur o'rganib, 3 toifaga ("yaxshi", "qoniqarli", "qoniqarsiz") ajratgan holda albom tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 24 avgust 445-sonli buyrug'i asosida 2024/2025-o'quv yilida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialiga qabul qilingan yoshlarni tabriklash bo'yicha "Talabalikka bag'ishlov" tadbiri bo'lib o'tdi. Unda filial Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari X.Turdibekov, "O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari" F.Axrorov so'zga chiqib O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yilligi hamda joriy 2024/2025-o'quv yilida 1-bosqichga qabul qilingan talabalarni chin dildan samimiy qutladi. Shu bilan birgalikda farzandini mazkur oliygohga o'qishga qabul qilinganligidan bag'oyat mamnun bo'lgan, vohamizga mehmon bo'lib kelgan ota-onalar hamda "Moliya va molyaviy texnologiyalar" yo'nalishi 1 bosqich talabasi Muminova Sevinch so'zga chiqib, barcha talaba-yoshlarni bugungi kun bilan tabrikladi. Shuningdek, yuqori natijalar ko'rsatib 1-kursga qabul qilingan talaba-yoshlar mazkur oliygohni tanlaganlaridan mamnun ekanliklarini bildirib, o'zlarining samimiy tilaklarini izhor etishdi.

2024-yil 10-sentabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Iqtisodiyot fakulteti IQT-424 guruh talabalari va ta'lim-tarbiya maslahatchisi Z.M.Mamadxonova tomonidan A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazi bo'ylab ekskursiya tashkil qilindi. Mutaxassislar tomonidan kutubxonada yaratilgan sharoitlar, kitoblar olami, kutubxona loyihalari bo'yicha faoliyat yuritayotgan elektron ma'lumot bazalari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tildi. Shuningdek, ekskursiya davomida ishtirokchilar bilan birgalikda kitobxonlikka oid turli xil savol javoblar ham tashkil etildi.

2024-yil 12-sentyabr kuni Xotin-qizlar masalalari bo'yicha direktor maslahatchisi O.Pardayeva, ta'lim-tarbiya maslahatchilari tomonidan davra suhbat tashkil etildi. Davra suhbatida filial ichki tartib va odob-axloq qoidalar haqida tushunchalar berib o'tildi. O.Pardayeva tomonidan qizlarga "Qizlarjon" klubi va klub qoshida faoliyat yuritayotgan to'garaklar to'g'risida ma'lumot berdi. Kiyinish madaniyati va iqtidorli talaba qizlarni saralab olish hamda "Qizlarjon" klubi qoshida yangi ochilgan to'garaklarga qizlarni qamrab olish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida davra suhbat bo'lib o'tdi. Shuningdek, filial "Buxgalteriya" fakulteti dekan maslahatchisi K.Mirfayziyeva ham 1-bosqich talaba-qizlariga o'z fikrlarini va mulohazalarini aytib o'tdi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, ta'lim-tarbiya maslahatchilari, fakultet dekanatlari va filial yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti hamkorlikda "Birinchi kurs maktabi" xaftaligi doirasida filialga qarashli talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi talabalar uchun ochiq osmon ostida "KINO_TIME" tadbiri tashkil etildi. "Birinchi kurs maktabi" doirasida tashkil etilgan mazkur "KINO_TIME" loyihasida talabalarni vatanparvalikka undovchi "ILHAQ" badiiy filmi namoyish qilindi.

Talabalar turar joyi talabalari ishtirokida Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari X.I.Turdibekov, Yoshlar bilan ishlash ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i T.A.Yuldashev, filialga birlashtirilgan profilaktika inspektorlari D.Shodmonov hamda T.Abduvaliyev, yoshlar yetakchisi, dekan o'rinbosarlari va ta'lim-tarbiya maslahatchilari bilan birgalikda talabalar turar joyida suhbat tashkil etildi. Suhbatda talabalar turar joyidagi filial ichki tartib intizomi, odob axloq qoidalar va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etishlari, umumiy ovqatlanish oshxonalaridan foydalanish, "Is gazidan zaharlanish"ni oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Bundan tashqari "Besh muhim tashabbus" va sport musobaqalarini tashkil etish va unda talabalar ishtiroki, qamrovini oshirish bo'yicha ham ma'lumotlar berildi.

2024-yilning 13-sentabr kuni Samarqand shahrida viloyat miqiyosida “Bo’sh ish o’rinlari yarmarkasi” o’tkazildi. Yarmarkada shahar va tumanlarda faoliyat yuritayotgan sanoat, xizmat ko’rsatish va qishloq xo’jaligi yo’nalishida yirik tadbirkorlar reklama stendlari va ishlab chiqarayotgan mahsulotlari bilan ishtirok etishdi. Shuningdek, viloyat Kambag’allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi tizimidagi “Ishga marhamat” monomarkazlari, turli kasblarga oid ko’rgazmali qurollari, stendlari, o’zini-o’zi band qilish bo’yicha berilayotgan asbob-uskunalar ko’rgazmali burchagi tashkil etildi. Tadbirda filial marketing va talabalar amaliyoti bo’limi xodimlari, mutaxassis kafedra professor-o’qituvchilari va bitiruvchi talaba-yoshlari qatnashishdi hamda ish beruvchilar bilan to’g’ridan-to’g’ri muloqot qilib vakant o’rinlari bo’yicha ma’lumotga ega bo’lishdi.

2024-yilning 13-sentyabr kuni TDIU Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası va "Iqtisodiyot" fakulteti hamkorligida "Kelajak kasblari va kelajakda kerakli ko’nikmalar (skills)" mavzusida case study darsi bo’lib o’tdi. Darsda talabalar zamonaviy kasblar va kelajakda talab etiladigan ko’nikmalar va mehnat bozoridagi o’zgarishlar haqida foydali ma’lumotlarga ega bo’ldilar. Ma’ruzachi - G’aniyev I.M. ushbu mavzu doirasida kelajak kasblarining ahamiyati va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg’unlashgan ko’nikmalarining roli haqida intensiv ma’ruza o’tkazdi. Tadbir davomida ishtirokchilar qaysi kasblar kelajakda muhim o’rin egallashi va qanday yangi ko’nikmalarni o’zlashtirish zarurligi haqida qimmatli bilimlar oldilar.

O’zbek milliy matolari deganda ko’z o’ngimizda kamalak ranglarda tovlanuvchi atlas-u adraslar namoyon bo’ladi. Azaliy qadriyatlarimizni o’zida ifoda etgan ushbu go’zal matolarda xalqimizning uzoq hamda shonli o’tmishi, qadimiy an’analari, estetik dunyoqarashi va o’ziga xos xususiyatlari mujassamdir. Bu borada yosh avlodni milliy qadriyat, an’ana va urf-odatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda TDIU Samarqand filialida milliy an’analarimizni tarannum etuvchi “Xon atlas” haftaligi keng nishonlandi.

2024-yil 17-sentabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida Yoshlar Ittifoqi boshlang’ich tashkiloti tashabbusi bilan “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida “Zakovat” intellektual o’yini hamda Master class darsi bo’lib o’tdi. Loyiha doirasida "yoshlar qalbida adabiyotga mehr-muhabbatni yanada kuchaytirish, ona Vatanga sadoqat tuyg’ularini kamol toptirish muhim masala ekanligi aytib o’tildi. Qizg’in va samimiy suhbatlar go’zal mushoiralarga ulanib, o’quvchilar sevimli ijodkorlarning she’rlaridan namunalar o’qidilar.” 2023-2024 o’quv yili davomida bo’lib o’tadigan "Zakovat" intellektual o’yini bahslari to’g’risida ham tafsilotlar berib o’tildi.

2024-yilning 19-sentabr sanasida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialining ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda, talabalarining universitet hayoti va ta’lim jarayoniga moslashishiga ko’maklashish maqsadida filiali psixologi Oripov Zarifbay tomonidan tyutorlarga mahorat darslari tashkil etildi. "Tyutor va psixolog hamkorligi", "Talaba-yoshlarning o’ziga xos psixologik holati", "Birinchi bosqich talabalarining moslashuvi" mavzularida tyutorlar uchun psixologik seminar trening o’tkazildi. Mahorat darsi davomida, tyutorlarga talabaning ijtimoiy-psixologik pasportini shakllantirish ishlari haqida ma’lumotlar berib o’tildi.

2024-yil, 19-sentabr kuni TDIU Samarqand filialida “Payshanba - profilaktika kuni” mavzusida profilaktik tadbir bo’lib o’tdi. Tadbirda filialga birlashtirilgan profilaktika inspektori D.Shodmonov, Iqtisodiyot fakulteti dekan o’rinbosari B.Qo’ziboyev hamda IQT-122 guruh talabalari ishtirok etishdi. Davra suhbatlari davomida talabalarga Yurtimizda huquqbuzarliklar va jinoyatlarni erta aniqlab oldini olish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning xavfsizligi va mahallalar osoyishtaligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, aholi tinchligi xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish mavzularida ma’lumotlar berildi. Tadbir chog’ida talabalarga jamoatchilik tartibiga qattiq rioya qilish odob axloq qoidalariga asosan muomala qilmaganlik natijasida sodir etilayotgan jinoyatlar tahlili, ularning kelib chiqish sabablari, huquqiy oqibatlari, amaldagi me’yoriy qonun hujjatlarida shu turdagi jinoyatlar uchun belgilangan jazolar, mayda bezorilik tufayli yuzaga kelayotgan mudhish holatlar, ularning insonlar, ayniqsa yoshlarning salomatligiga salbiy ta’siri kabi masalalarga o’z fikr va mulohazalarini bildirib o’tdi.

Filial talabalar tura joyida qizlarining sog’lom turmush tarzini shakllantirish va tibbiy tarbiya masalalari bo’yicha iqtisodiyot fakulteti xotin-qizlar bo’yicha dekan maslahatchisi dotsent Ozoda Pardayeva, Buxgalteriya fakulteti xotin-qizlar ishi bo’yicha dekan maslahatchisi Kamola Mirfayziyeva hamda filial hamshirasi bilan birgalikda talabalar o’rtasida o’tkazilgan suhbat sog’lom hayotning ahamiyati va uning asosiy tamoyillari haqida chuqur fikr almashish imkonini berdi. Suhbat dasturida

professorlar qizlarning jismoniy faolligini oshirish, ruhiy va emotsional sog'liqlarini ta'minlash, shuningdek, to'g'ri ovqatlanishning muhimligini ta'kidladi. Ularning so'zlariga ko'ra, sog'lom turmush tarzi nafaqat jismoniy sog'likni yaxshilaydi, balki akademik muvaffaqiyatlarni ham oshiradi. Qizlar o'z fikrlarini bildirishib, tibbiy tarbiya bo'yicha kurslarni o'tkazish, sport imkoniyatlarini kengaytirish va sog'lom ovqatlanish bo'yicha tavsiyalarni amalga oshirishni taklif qilishdi. Suhbat davomida, qizlarga stressni kamaytirish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun turli usul va uslublarni qo'llashning ahamiyati kiritildi. Natijada, bunday tadbirlar qizlarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishini oshirdi va ularni kelajakda o'z sog'lig'iga mas'uliyat bilan yondashishga undadi. Professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlik va tushunish muhim vazifa sifatida qolmoqda, bu esa shuningdek universitet hamjamiyatining sog'lom rivojlanishiga olib kelishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan mamlakatimiz yoshlari manaviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surilgan edi. Ushbu tashabbuslarning ikkinchi yo'nalishi yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan bo'lib, o'tgan davr mobaynida bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganligini alohida ta'kidlash joiz.

Joriy yilning 20-sentabr kuni TDIU Samarqand filialida "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida filial talabalari o'rtasida sport musobaqalariga start berildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, talaba-yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy dunyoqarashini shakllantirish va jinoyatchilikni oldini olish maqsadida "Diniy ekstremizm va aqidaparastik g'oyalarga qarshi targ'ib qilish va ularni profilaktikasi" va «Odam savdosi qurboni jabrlanuvchisi bo'lishni oldini olish» mavzularida profilaktik uchrashuv o'tkazildi., filial yuritkonsulti, ta'lim-tarbiya maslahatchilari va talabalar ishtirok etishdi. Yig'ilish davomida diniy ekstremizm va jinoyatchilik-bu jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi, aholining xotirjamligiga putur yetkazishga qaratilgan qora kuchlar hisoblanadi. Shuningdek ogohlik davr talabi ekanligini, talabalar ijtimoiy tarmoqlardagi har xil saytlarga kirishda o'z huquqiy ongi va madaniyati oshirib borish kerakligi, talabalarga IIB xodimlari tomonidan internetdagi tahdidlardan, zamonaviy tahdidlardan ogoh bo'lish bo'yicha tayyorlangan bukletlar tarqatildi, talabalarni qiziqitiruvchi savollariga yuritkonsulti tomonidan javob berildi.

2024-yil 23-sentyabr kuni Filialga birlashtirilgan profilaktika inspektori D.Yuldashev, ta'lim-tarbiya maslahatchisi Z.M.Mamadxonova va Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs IQT-124,224-guruh talabalar ishtirokida "Odam savdosiga qarshi kurashish" mavzusida davra suhbatini tashkil etildi. Davra suhbatida odam savdosining qurboniga aylanayotgan shaxslarning soddaligi, o'zining, yaqinlarining taqdiriga va kelajagiga befarqligi, ya'ni eng oliy ne'mat hisoblanmish erkin hayot tushunchasiga nisbatan yengil va beparvolik bilan qarashlari oqibatida ushbu odam savdosini amalga oshiruvchi jinoyatchilarning o'ljasiga, aniqrog'i ularning oson daromad manbaiga aylanib qolganliklari haqida aytib o'tildi. O'zbekiston Respublikasida eng oliy qadriyat sifatida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa tabiiy xuquqlari e'tirof etilgan bo'lib, bu xuquqlar Konstitutsiyamizda ham mustaxkamlangan. Yurtimizda odam savdosi jinoyati uchun uchun bir qator og'ir jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lsada, ammo mana shunday jirkanj jinoyat bilan shug'ullanib kelayotgan shaxslar uchrab turibdi. Odam savdosi o'zi bu qanday jinoyat ekanligiga tushuncha berib o'tildi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasi mazmuniga ko'ra, odam savdosi deganda, odamni olish-sotish yoki odamni ekspluatatsiya qilish maqsadida yollash yoki qabul qilish tushuniladi. Davra suhbatini davomida talabalar o'zlarini qiziqitirgan barcha savollarga atroflicha javob oldilar.

2024-yil 25-sentyabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti hamda "Zakovat" klubi hamkorligida talaba-yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish maqsadida "Talabalar ligasi" kuzgi mavsum I-tur bosqichi bo'lib o'tdi. "Zakovat" intellektual o'yinida 6 ta jamoa qatnashdi. O'yinda faol qatnashgan jamoalar keyingi turga yullanmani kiritishdi. Ayni kunlarda yurtimiz bo'ylab yoshlarni kitob mutolaasiga jalb etish, badiiy savodxonlik darajasini oshirish orqali ularni vatanparvarlik va yurtimiz kelajagiga daxldorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan "Ma'rifat ulashib" loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida 2024-yil 25-sentyabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali tomonidan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, taniqli ijodkorlar Amir Xudoyberdi, Gulardon Tog'ayeva va Alisher Boymurodovlarning ijodiy uchrashuvlari tashkil qilindi. Unda yoshlar qalbida adabiyotga

mehr-muhabbatni yanada kuchaytirish, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish muhim masala ekanligi aytib o'tildi. Qizg'in va samimiy suhbatlar go'zal mushoiralarga ulanib, o'quvchilar sevimli ijodkorlarning hayoti va ijodi, she'rlaridan namunalar o'qidilar. 2024-yil 26-sentyabr kuni Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs talabalari uchun tadbirkorlar tomonidan master klass darsi o'tkazildi. Dars "FREEDOM" broker kompaniyasi bosh investitsiya maslahatchisi Feruz Burxanov tomonidan talabalarga "Fond bozori va investitsion jozibadorlik" mavzusida olib borildi. FREEDOM BROKER" xalqaro darajadagi investitsiya kompaniyasi bo'lib, dunyoning 13 mamlakatida taqdim etiladi. Dunyo bo'ylab 340 ming investor bizning g'oyalimiz asosida daromad oladi! Kompaniya Freedom Holding korporatsiyasi xalqaro investitsiya guruhi tarkibiga kiradi. Bozorda 2008 yildan beri faoliyat olib boradi. Free Holding Corp aktsiyalari Nasdaq capital marketda FRHC belgisi ostida ro'yxatga olingan. Xolding faoliyati Qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasi (SEC, AQSH) tomonidan tartibga solinadi. Dars davomida talabalar o'zlarining qiziqtirgan savollariga javob olishdi. Mamlakatimizdagi barcha oliy ta'lim muassasalari hamda umumta'lim maktablarining talaba va o'quvchilarini kitob mutolaasiga jalb etish, badiiy savodxonlik darajasini oshirish orqali ularni vatanparvarlik va yurtimiz kelajagiga daxldorlik ruhida tarbiyalash maqsadida "Ma'rifat ulashib" loyihasi ishlab chiqildi. Joriy yilning 27-sentabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida tashkil etilgan "Ma'rifat ulashib" mavzusidagi madaniy-ma'rifiy tadbir ana shunday ezgu g'oyani o'zida mujassam etdi. Kechada O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, taniqli ijodkorlar Gulandon Tog'ayeva, Alisher Boymurodov, Amir Xudoyberdilar ishtirok etdi. She'riyatga oshufta talaba-yoshlarga ular tomonidan kerakli tavsiyalar berildi. Qizg'in savol-javob mushoiraga ulanib ketdi. Tadbirda ijodkorlar yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar xususida fikrlarini bildirdi, she'rlaridan namunalar o'qib berdi. Mazkur tadbirdan ko'zlangan maqsad mamlakatimizda milliy g'oyani keng targ'ib qilish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirishdan iborat. Uchrashuv davomida iqtidorli talabalar tomonidan tayyorlangan chiqishlar ko'rsatildi. "Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasida navbatdagi ijodiy uchrashuv taniqli ijodkor Alisher Boymurodov bilan talabalar turar joyida tashkil etildi. Taniqli shoir va yozuvchi Alisher Boymurodov talabalar turar joyi kutubxonasida talaba yoshlar bilan "Yoshlik nafasi she'riyati" haqida master klass o'tkazildi. Tadbir davomida adibning ijodi yoshlar qalbida adabiyotga mehr-muhabbatni yanada kuchaytirish, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish muhim masala ekanligi aytib o'tildi. Qizg'in va samimiy suhbatlar go'zal mushoiralarga ulanib, talabalar sevimli ijodkorning hayoti va ijodi, she'rlaridan namunalar o'qidilar. "Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasida taniqli ijodkorlar bilan navbatdagi ijodiy uchrashuv talaba qizlar bilan bo'lib o'tdi. Tadbirda taniqli shoir va yozuvchilar Amir Xudoyberdi va Gulandom Tog'ayevalar ishtirok etishdi. Tadbir davomida shoirlarimiz tomonidan talaba-yoshlarning adabiyotga, sheriyaatga bo'lgan muhabbatini oshirish, el ardoqlagan shoirlarimizning hayoti va ijodi, erishgan yutuqlari haqida habardor bo'lish orqali o'zlarining ijodlarini yanada rivoj toptirishga qaratilgan suhbat bo'lib o'tdi. Tadbir so'ngida ijodkor va tashabbuskor talaba-yoshlar tomonidan shoirlarning qalamiga mansub she'rlaridan namunalar aytib o'tildi hamda talabalarga shoir o'z dasxatini berdi. TDIU Samarqand filiali direktorining "Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar" bo'yicha birinchi o'rinbosari Hasan Ibrohimovich Turdibekov jamoa nomidan barcha fidoyi professor-o'qituvchilarni kasb bayrami bilan samimiy tabriklab, yil davomida namunalari faoliyat olib borgan bir qator professor-o'qituvchilar Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi Faxriy yorliqlari hamda filial direktorining Tashakurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi. Shuningdek, bir qator o'qituvchilarga universitet Kasaba uyushmasining qimmatbaho sovg'alari ham topshirildi. Oy davomida ta'lim-tarbiya maslahatchilari va guruh rahbarlariga menga **"Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda", "Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – vatanmiz"** va **"O'zbekistonda parlament tizimi va undagi islohatlar", "Ustoz-qadri buyuk muallim"** mavzularda axborot va murabbiylik darslari o'tkazishda amaliy yordam ko'rsatildi. Ijarada va yaqin qarindoshinikida yashaydigan talabalar bilan hafta davomida yashash sharoitlari o'rganilib, xonalarni tozaligi, umumiy ovqatlanish oshxonalaridan foydalanish, texnika xavfsizligi va "Is gazidan zaharlanish"ni oldini olish isitish uskunalarida to'g'ri foydalanish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilib hamda kerakli maslahatlar berildi.

Sentyabr oyi davomida o'tkazilgan tadbirlardan lavhalar

